

Туристтик компанияларга куйидаги йўналишлар тавсия этилади:

– меҳмонхоналарда аккил энергия менежменти ва сувни қайта ишлаш тизимларини жорий этиш;

– маҳаллий таъминотчилар билан кооперация орқали “қисқа занжирли” таъминот тизимини яратиш;

– туристлар учун экологик туризм пакетлари ишлаб чиқиш ва ЦИ тамойиллари билан таништириш.

Циркуляр иқтисодиёт тамойиллари туристик зоналар учун нафақат экологик, балки иқтисодий жиҳатдан ҳам истиқболли ёндашув ҳисобланади. Ресурс самарадорлигини ошириш, чиқиндиларни камайтириш ва қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланиш туристик объектларнинг узоқ муддатли рақобатбардошлигини таъминлайди.

Ўзбекистон учун барқарор туризм моделига ўтиш – бу нафақат экологик зарурат, балки жаҳон туризм бозорида муносиб ўрин эгаллаш учун стратегик зарурат. Мамлакатнинг бой маданий мероси, кенг табиий ресурслари ва ислохотга очиқ туризм сиёсати бу йўлни реал ва қисқа муддатда амалга оширишга имкон беради.

Циркуляр иқтисодиёт тамойилларини туризм соҳасига интеграция қилиш – бу узоқ муддатли жараён бўлиб, давлат, бизнес ва фуқаролик жамиятининг ҳамкорлигини талаб этади. Бироқ ушбу йўлда қўйилган ҳар бир қадам Ўзбекистоннинг барқарор ривожланиш йўлидаги муҳим ютуқ бўлади.

Chori XUSANOV,
TDSHU “Turizm” kafedrası mudiri, i.f.n., dots.

TURIZM INFRATUZILMASINI MODERNIZATSIYA QILISH ORQALI HUDUDLARNING IQTISODIY RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH

Annotatsiya: *Turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish hududlarning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va investitsiyalarni jalb etish orqali hududlarning iqtisodiy salohiyati hamda turistik jozibadorligi ortadi.*

Kalit soʻzlar: *turizm, infratuzilma, modernizatsiya, iqtisodiy raqobatbardoshlik, hududiy rivojlanish, investitsiya, xizmat koʻrsatish.*

Аннотация: *Модернизация туристической инфраструктуры является важным фактором повышения экономической конкурентоспособности регионов. Развитие современной инфраструктуры, улучшение качества услуг и привлечение инвестиций способствуют росту экономического потенциала и туристической привлекательности территорий.*

Ключевые слова: *туризм, инфраструктура, модернизация, экономическая конкурентоспособность, региональное развитие, инвестиции, сфера услуг.*

Annotation: *Modernization of tourism infrastructure is an important factor in increasing the economic competitiveness of regions. The development of modern infrastructure, improvement of service quality, and attraction of investments contribute to the growth of economic potential and*

tourism attractiveness of territories.

Keywords: *tourism, infrastructure, modernization, economic competitiveness, regional development, investment, service sector.*

Bugungi globallashuv jarayonida turizm sohasi mamlakatlar va hududlar iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Turizm nafaqat yangi ish o‘rinlarini yaratish, balki hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish, xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish va mahalliy byudjet daromadlarini ko‘paytirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli turizm infratuzilmasini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish va modernizatsiya qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Hududlarda transport, mehmonxona, aloqa, servis va boshqa turistik infratuzilma obyektlarini takomillashtirish turistlar oqimini ko‘paytirish bilan birga iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy infratuzilma hududlarning ichki va tashqi bozordagi mavqeini mustahkamlab, iqtisodiy o‘sish uchun qulay sharoit yaratadi. Shu jihatdan turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilishning iqtisodiy samaradorligini o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Hozirgi davrda turizm sohasi jahon iqtisodiyotining yuqori daromad keltiruvchi va tez sur‘atlarda rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda xalqaro turistlar oqimi 1,4 milliard nafarga yaqinlashgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich pandemiyadan oldingi davrning qariyb 95 foizini tashkil etgan²⁸⁵. Turizm xizmatlari eksporti hajmi esa 1,9 trillion AQSH dollariga yetgan²⁸⁶. Mazkur holat turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish iqtisodiy rivojlanishning muhim omiliga aylanganini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda ham turizmni rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. So‘nggi yillarda mamlakatda turizm infratuzilmasini takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, yangi mehmonxonalar qurilishi, aeroport va temiryo‘l infratuzilmasining modernizatsiya qilinishi, ichki yo‘llarning rekonstruksiya qilinishi hamda zamonaviy servis xizmatlarining joriy etilishi turistlar oqimini sezilarli oshirdi. Statistika agentligi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda O‘zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 8,2 million nafardan oshib, 2023-yilga nisbatan 18 foizga ko‘paygan²⁸⁷. Turizm xizmatlari eksportidan tushgan daromad esa 3,5 milliard AQSH dollariga yetgan²⁸⁸.

Hududlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ham multiplikativ ta‘sir ko‘rsatmoqda. Xususan, mehmonxona biznesi, umumiy ovqatlanish, transport, savdo va hunarmandchilik sohalarida yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda. 2024-yilda turizm sohasi bilan bog‘liq xizmatlar ulushi

²⁸⁵ U United Nations World Tourism Organization (UNWTO). *World Tourism Barometer 2024*. – Madrid: UNWTO, 2024. – URL: (murojaat qilingan sana: 06.05.2026).

²⁸⁶ World Travel & Tourism Council (WTTC). *Economic Impact Research 2024*. – London: WTTC, 2024. – URL: (murojaat qilingan sana: 06.05.2026).

²⁸⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. *Turizm sohasining asosiy ko‘rsatkichlari*. – Toshkent, 2025. – URL: (murojaat qilingan sana: 06.05.2026).

²⁸⁸ O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi. *2024-yil yakunlari bo‘yicha turizm statistikasi va tahliliy ma‘lumotlar*. – Toshkent, 2025. – URL: (murojaat qilingan sana: 06.05.2026).

mamlakat YaIMining qariyb 5,2 foizini tashkil etdi²⁸⁹. Shu bilan birga, Samarqand, Buxoro, Xiva va Farg‘ona vodiysi hududlarida yangi turistik obyektlarning foydalanishga topshirilishi hududiy iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qilmoqda.

1-jadval

O‘zbekistonda turizm infratuzilmasi rivojlanishining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari²⁹⁰

Ko‘rsatkichlar	2023-yil	2024-yil	O‘sish sur‘ati (%)
Xorijiy turistlar soni (mln. nafar)	6,9	8,2	18%
Turizm xizmatlari eksporti (mlrd. AQSH dollari)	2,9	3,5	20,6%
Turizmning YAIMdagi ulushi	4,8%	5,2%	+0,4 band
Turizm sohasiga investitsiyalar (mlrd. AQSH dollari)	1,5	2,0	33%
Yangi mehmonxonalar soni	310	420	35%

Turizm infratuzilmasining modernizatsiyasi investitsion jozibadorlikni kuchaytirishda ham muhim omil hisoblanadi. So‘nggi uch yil davomida turizm sohasiga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 2 milliard AQSH dollaridan oshdi²⁹¹. Xususan, xalqaro mehmonxona brendlari, zamonaviy dam olish maskanlari hamda ekologik turizm obyektlariga yo‘naltirilgan investitsiyalar hududlarning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirmoqda. Bunda davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarning ahamiyati yuqori bo‘lib, ular infratuzilma xarajatlarini kamaytirish va xizmatlar sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Raqamli texnologiyalarni turizm sohasiga keng joriy etish ham infratuzilma samaradorligini oshirmoqda. Elektron vizalar tizimi, onlayn bron qilish platformalari, mobil ilovalar va raqamli navigatsiya xizmatlari turistlar uchun qulaylik yaratmoqda. Natijada, O‘zbekistonning xalqaro turizm reytinglaridagi o‘rni yaxshilanib bormoqda. Jahon iqtisodiy forumining Turizm va sayohatlarni rivojlantirish indeksida mamlakatning pozitsiyasi so‘nggi yillarda bir necha pog‘onaga ko‘tarilgan²⁹².

Shuningdek, ekologik va barqaror turizmni rivojlantirish orqali hududlarning uzoq muddatli iqtisodiy samaradorligini ta‘minlash mumkin. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini joriy etish va ekologik turizm obyektlarini rivojlantirish xalqaro turistlar oqimini ko‘paytiradi. Bu esa mahalliy byudjet daromadlari va eksport xizmatlari hajmining ortishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Umuman olganda, turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish hududlarning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirish, aholi bandligini ta‘minlash, investitsiyalar hajmini kengaytirish hamda xizmatlar eksportini rivojlantirishda muhim strategik omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois kelgusida zamonaviy infratuzilma loyihalarini kengaytirish, xizmatlar sifatini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va

²⁸⁹ O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. *Hududiy iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari bo‘yicha hisobot*. – Toshkent, 2024. – URL: (murojaat qilingan sana: 06.05.2026).

²⁹⁰ World Tourism Organization, O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

²⁹¹ Qudratov G., Pardayev M. *Turizm iqtisodiyoti*. – Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2021. – 256 b.

²⁹² World Economic Forum. *Travel & Tourism Development Index 2024*. – Geneva: WEF, 2024. – URL: (murojaat qilingan sana: 06.05.2026).

innovatsion texnologiyalarni joriy etish zarur hisoblanadi.

Turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish hududlarning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirishda muhim strategik omil hisoblanadi. Zamonaviy transport tizimi, mehmonxona xizmatlari, raqamli texnologiyalar va servis infratuzilmasining rivojlanishi turistlar oqimini ko'paytirish bilan birga hududlarning investitsion jozibadorligini ham oshiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, turizm infratuzilmasini takomillashtirish orqali yangi ish o'rinlari yaratiladi, xizmatlar eksporti hajmi kengayadi hamda mahalliy byudjet daromadlari ortadi. Ayniqsa, davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va xizmatlar sifatini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish hududiy iqtisodiy o'sishni jadallashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ekologik va barqaror turizmni rivojlantirish orqali hududlarning uzoq muddatli iqtisodiy samaradorligini ta'minlash mumkin. Shu sababli kelgusida turizm infratuzilmasiga investitsiyalar hajmini oshirish, zamonaviy xizmatlar tizimini kengaytirish hamda hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shohruh MARDONOV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o'qituvchisi,
Madina ANVAROVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi

O'ZBEKISTONNING CHEKKA HUDUDLARIDA MICE TURIZMINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonning chekka hududlarida MICE turizmini rivojlantirishning strategik imkoniyatlari tahlil qilinadi. MICE turizmi global miqyosda iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri hisoblanmoqda. O'zbekiston o'zining boy madaniy merosi, geografik joylashuvi hamda mehmondo'stligi bilan ushbu faoliyatning faol ishtirokchisiga aylanish imkoniyatiga ega. Maqolada chekka hududlarning tabiiy – geografik ustunliklari tahlil qilinib, ularni xalqaro biznes tadbirlar uchun zarur bo'lgan infratuzilmaviy va raqamli modellar taklif etiladi. Shuningdek, MICE turizmini rivojlantirish orqali hududlarda mavsumiylik muammosini bartaraf etish va mahalliy aholini bandligini ta'minlashning ijtimoiy – iqtisodiy samaradorligi asoslab beriladi.*

***Kalit so'zlar:** MICE turizm, chekka hududlar, raqamli infratuzilma, iqtisodiy diversifikatsiya.*

***Аннотация.** В данной статье анализируются стратегические возможности развития MICE-туризма в отдаленных регионах Узбекистана. MICE-туризм считается одним из ключевых факторов экономического роста в глобальном масштабе. Узбекистан, с его богатым культурным наследием, географическим положением и гостеприимством, имеет потенциал стать активным участником этого сектора. В статье рассматриваются природные и географические преимущества отдаленных регионов и предлагаются инфраструктурные и цифровые модели, необходимые для организации международных деловых мероприятий. Кроме того, обоснована социально-экономическая эффективность развития MICE-туризма с точки зрения устранения проблем сезонности в*